



IOGANN VOLFGANG FON GYOTENING FALSAFIY DUNYOQARASHI VA
“FAUST” TRAGEDIYASIDA INSONIY INTILISH KONSEPSIYASI

Atabayeva Zarnigor Baxran qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

zarnigorbahranovna91@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi Iogann Volfgang fon Gyotening falsafiy dunyoqarashi hamda “Faust” tragediyasida aks etgan asosiy g‘oyaviy-falsafiy tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Streben” — doimiy intilish konsepsiyasi, inson va tabiat uyg‘unligi, bilimga chanqoqlik va axloqiy tanlov masalalari yoritiladi. Shuningdek, Gyote falsafasining ingliz romantizmi va Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Iogann Volfgang fon Gyote, “Faust”, falsafiy dunyoqarash, Streben (intilish), inson va tabiat birligi, dualizm, romantizm, Sharq falsafasi, ingliz adabiyoti, ma’naviy izlanish, badiiy-falsafiy talqin.*

Аннотация. *В данной тезисной работе анализируются философское мировоззрение Иоганна Вольфганга фон Гёте и основные идейно-философские принципы, отражённые в трагедии «Фауст». В исследовании рассматриваются концепция «Streben» — постоянного стремления, проблемы гармонии человека и природы, жажды познания и нравственного выбора. Также научно обоснована связь философии Гёте с английским романтизмом и восточной социально-философской мыслью.*

Ключевые слова: *Иоганн Вольфганг фон Гёте, «Фауст», философское мировоззрение, Streben (стремление), единство человека и природы, дуализм, романтизм, восточная философия, английская литература, духовный поиск, художественно-философская интерпретация.*

Annotation. *This thesis examines Johann Wolfgang von Goethe’s philosophical worldview and the key ideological and philosophical principles reflected in the tragedy Faust. The study explores the concept of Streben—constant striving—as well as issues of harmony between humanity and nature, the pursuit of knowledge, and moral choice. Furthermore, the paper substantiates the connection between Goethe’s philosophy, English Romanticism, and Eastern socio-philosophical thought.*

Keywords: *Johann Wolfgang von Goethe, Faust, philosophical worldview, Streben (striving), unity of humanity and nature, dualism, Romanticism, Eastern philosophy, English literature, spiritual quest, artistic-philosophical interpretation.*

Iogann Volfgang fon Gyote Yevropaning eng buyuk shaxslari qatorida, Germaniyaning yetuk shoiri sifatida umume’tirof etilgan bo‘lsa-da, uning shaxsiyati va faoliyatining ko‘lami hamda xilma-xilligi uni mutafakkirlar orasida alohida mavqega ko‘taradi. Gyote



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



serqirra ijodkor sifatida nafaqat shoir, balki rassom, olim, davlat arbobi, faylasuf, adabiy tanqidchi va teatr boshqaruvchisi sifatida ham faoliyat yuritgan. Tadqiqotchilar uni haqiqatni beg‘araz izlashga intilgan so‘nggi universal shaxs sifatida baholaydilar. Gyote butun umri davomida chinakam komil inson bo‘lishga intildi va o‘z davrida “ajralgan va hafsalasi pir bo‘lgan inson parchalari” fonida ilm-fan va tafakkur sahnasida porlagan buyuk alloma sifatida namoyon bo‘ldi⁹³.

Gyote falsafasining muhim jihati shundaki, u o‘z davrida hukmron bo‘lgan, aqlni materiyadan, tanani esa ruhdan ajratuvchi dualistik tafakkurga qaramay, insonning yaxlit individ sifatidagi birligiga va uning tabiat bilan uzviy uyg‘unligiga ishongan. Uning falsafiy qarashlarining markazida jamiyatda ezgulikka intilish va komil insonni tarbiyalash g‘oyasi turadi.⁹⁴ Gyotega ko‘ra, inson va tabiat ikki alohida olam bo‘lsa-da, ularning rivoji umumiy va universal qonuniyatlar asosida kechadi. Inson tabiatga qarshi emas, balki uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ana shu qarashlar Gyotening buyuk asari — “Faust” tragediyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Faust” nafaqat badiiy asar, balki insoniy mavjudlikni chuqur falsafiy tadqiq etuvchi nodir ijod mahsulidir. Unda intilish, ikkiyuzlamachilik, ma’no izlash kabi muhim falsafiy masalalar badiiy obrazlar orqali yoritilgan. Asar nafaqat nemis adabiyotiga, balki ingliz va amerika adabiy an‘analariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Gyote o‘z ijodiy faoliyatini XVIII asrning 70-yillarida boshladi. Uning “Gyos fon Berlixingen”, “Prometey”, “Muhammad” kabi dastlabki dramalari va she’riy asarlari unga katta shuhrat keltirdi⁹⁵. Xususan, Gyotening Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) shaxsiga bo‘lgan chuqur ehtiromi uning “Mahomets Gesang” (“Muhammad qo‘shig‘i”) she’rida yorqin ifodalangan. Ushbu asarda Payg‘ambar (s.a.v.) tabiatning harakatchan va o‘zgartiruvchi kuchi sifatida tasvirlanib, kichik buloqdan boshlanib qudratli daryoga aylanuvchi ramziy oqim orqali gavdalantiriladi.

1774-yilda Gyote “Die Leiden des jungen Werthers” (“Yosh Verterning iztiroblari”)⁹⁶ romanini yaratdi. Ushbu epistolyar roman yosh yuridik amaliyotchi Verterning unashtirilgan ayol — Lottega bo‘lgan javobsiz muhabbati va uning fojeali yakuni orqali individual ruhiy iztiroblarni tasvirlaydi.

Bizning tadqiqotimiz markazida turgan “Faust” asarida asosiy falsafiy tamoyil “Streben”, ya’ni doimiy intilish konsepsiyasi hisoblanadi. Gyotega ko‘ra, inson mohiyati cheksiz bilim izlash, o‘zini takomillashtirish va hayot mazmunini anglash jarayonida namoyon bo‘ladi. Faust obrazi ana shu bezovta, izlovchi inson ruhining timsolidir. U mavjud bilimlar bilan qanoatlanmaydi va doimo yangi ufqlar sari intiladi. Shu bilan birga, Gyote Faust obrazi

⁹³ Elizabeth M.W, Willoughby L.A. Goethe, Poet and Thinker. – London, 1962. – P. 10.

⁹⁴ Wilkinson E.M. Willoughby L.A. Goethe: Poet and Thinker. – London: Methuen, 1962. – P. 11.

⁹⁵ [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/Jahon%20adabiyoti%20\(Shoira%20Normatova\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/Jahon%20adabiyoti%20(Shoira%20Normatova).pdf)

⁹⁶ David E. Welbery: Eine Neue Geschichte der deutschen Literatur. Hrsg.: David E. Welbery. 1. Auflage. – Berlin University Press, 2007. – S. 498.





orqali bilimga intilish nafaqat yuksak qadriyat, balki ma’lum darajada xatarli jarayon ekanini ham ko’rsatadi.

Gyote falsafasining ingliz adabiyotiga ta’siri romantik shoirlar ijodida yaqqol ko’zga tashlanadi. Jumladan, Uilyam Vordsvort inson va tabiat o’rtasidagi uyg’unlik, ruhiy to’laqonlikka intilish masalalarini yoritishda Gyotening qarashlariga yaqin turadi. Persi Bisse Shellining “Zanjirband Prometey” asarida esa zulmga qarshi kurash, intellektual va ruhiy erkinlikka intilish g’oyalari Faust obrazi bilan g’oyaviy mushtaraklik kasb etadi.⁹⁷

Gyotening dunyoqarashi shakllanishida Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurining ta’siri ham muhim o’rin tutadi. U Sharq madaniyati, adabiyoti va falsafasini chuqur o’rgangan, Hofiz Sheroziyni o’ziga ustoz deb bilgan. Sharq she’riyatidagi hayotsevarlik, inson aqliga va imkoniyatlariga ishonch kabi g’oyalar Gyoteni o’ziga rom etgan. Bu ruhiy yaqinlik 1819-yilda e’lon qilingan “Mag’rib-u Mashriq devoni”da o’z ifodasini topgan.

“Faust” asari afsonaviy asosga ega bo’lib, isyonkor doktor Faust haqidagi rivoyatlar Gyote tomonidan falsafiy-badiiy jihatdan qayta talqin etilgan. Asar ramzlarga boy, makon va zamon jihatidan umumlashtirilgan bo’lib, unda butun insoniyatning iztiroblari, orzu-intilishlari mujassamlangan. Tragediya ikki qismdan iborat bo’lib, klassitsizm an’analariga xos “Bag’ishlov”, “Teatr muqaddimasi” va “Arshi a’lodagi debocha” bilan boshlanadi.

“Faust”ning markaziy g’oyasi — doimiy o’sish, o’z-o’zini anglash va ma’naviy takomilga intilishdir. Asarda ezgulik va yovuzlik, aql va ehtiros, erkinlik va mas’uliyat o’rtasidagi abadiy kurash inson tabiatining murakkabligini ochib beradi. Gretxen obrazi orqali esa sevgi, iztirob va san’atning qutqaruvchi kuchi falsafiy-badiiy talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Iogann Volfgang fon Gyote adabiyot, falsafa va ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo’shgan buyuk mutafakkir bo’lib, uning falsafasi o’z-o’zini kashf etish, inson imkoniyatlarini anglash va borliqning yaxlitligi g’oyalariga asoslanadi. “Faust” asari esa ushbu qarashlarning badiiy mujassamoti sifatida jahon adabiyotida alohida o’rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adler J. Goethe’s Visual World. – Chicago: University of Chicago Press, 2010. – P. 192-206.
2. Boyle N. Goethe: The Poet and the Age. Volume II: Revolution and Renunciation (1790–1803). – Oxford: Clarendon Press, 2000. – P. 3-19.
3. Dante Alighieri. Divine comedy. (*Inferno*). Translation by Sibbald J.R. –Edinburgh: Edinburgh University Press, 2008. – P. 152.
4. David E. Welbery: Eine Neue Geschichte der deutschen Literatur. Hrsg.: David E. Welbery. 1. Auflage. – Berlin Berlin University Press, 2007. – S. 498.

⁹⁷ Shelley P. B. Prometheus Unbound. – New York: D.C. Heath & Co, 1820. – P. 189





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. Goethe J. W. [Faust. A Tragedy. Translated by Alice Raphael. With ... Woodcuts by Lynd Ward. \(Second Printing.\)](#). Jonathan Cape & Harrison Smith, 1930.
6. Golding W. Lord of the Flies. – London: Pinguin books, 1954. – P. 65.
7. Wilkinson E.M. Willoughby L.A. Goethe: Poet and Thinker. – London: Methuen, 1962. – P. 11.

